

**YANGI O'ZBEKISTONNING KO'P TOMONLAMA DIPLOMATIYASIDA
YEVIROPA ITTIFOQINING TUTGAN O'RNIGA DOIR****Sherzod E. Ziyoyev**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
mustaqil izlanuvchisi**Abstract**

This report discusses the situation that arose in Eurasia in the recent past of Uzbekistan, more precisely, in the early 90s of the last century, which aroused interest in Central Asia and hopes for mutual cooperation in Europe. If earlier the removal of the "iron curtain" that "blocked" this region from Europe marked a fundamental change in the attitude of European countries to Central Asia, today, more than 30 years later, the intensification of practical actions has become the main topic of the agenda of negotiations between the parties. The growing interest in this region in Europe is reflected in various political and economic aspects and processes. In this work, the researcher presents scientific views on the place of the European Union in the system of multilateral foreign relations of New Uzbekistan, based on the international and regional situation. The author analyzes the topic based on the principles of historicity, objectivity and impartiality and shares a number of suggestions and comments.

Key words: Central Asia, New Uzbekistan, European Union, multilateral diplomacy, political ties, geopolitical situation, China factor, Russia factor, multifaceted cooperation

Annotatsiya

Mazkur ma'ruzada O'zbekistonning yaqin o'tmishida, aniqrog'i, o'tgan asrning 90-yillari boshida Yevrosiyoda yuzaga kelgan vaziyat Yevropada ham Markaziy Osiyoga bo'lgan qiziqish va o'zaro hamkorlik uchun umidlarni uyg'otgan edi. Ilgari mazkur mintaqani Yevropadan "to'sib" turgan "temir parda"ning bartaraf etilishi Yevropa davlatlarining Markaziy Osiyoga bo'lgan munosabatida tub burilish yasagan bo'lsa, bugun oradan 30 yildan ortiq vaqt o'tib, amaliy harakatlarni jadallashtirish tomonlar o'rtasidagi muzokaralar kun tartibining bosh mavzusiga aylanib ulgurdi. Yevropada ushbu mintaqaga bo'lgan qiziqishning kuchayib borishi turli siyosiy, iqtisodiy jabha va jarayonlarda namoyon bo'lmoqda. Ushbu ishda tadqiqotchi tomonidan Yangi O'zbekistonning ko'p tomonlama tashqi aloqalari tizimida Yevropa Ittifoqining tutgan o'rniga doir ilmiy qarashlar xalqaro va mintaqaviy vaziyatdan kelib chiqib o'rtaqa tashlangan. Muallif bunda tarixiylik, ob'yektivlik va xolislik tamoyillariga asoslangan holda mavzuni tahlil etib, bir qator taklif va mulohazalarini o'rtoqlashadi.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, Yangi O'zbekiston, Yevropa Ittifoqi, ko'p tomonlama diplomatiya, siyosiy rishtalar, geosiyosiy vaziyat, Xitoy omilil, Rossiya omili, ko'p qirrali hamkorlik

Avvalo, Yelning Markaziy Osiyoga bo'lgan strategik munosabati shunday tarixiy vaziyatda shakllana boshladiki, o'tgan asrning 90-yillari boshida Markaziy Osiyo mamlakatlari o'z davlat mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng, Yevropa bilan aloqalarni o'rnatish va rivojlantirib borish alohida muhim ahamiyat kasb etuvchi omilga aylangan edi. Bunda Yevropa davlatlarining siyosiy, iqtisodiy va harbiy salohiyati, ularning jug'rofiy joylashuvi va xalqaro transport-kommunikatsiya tarmoqlarida tutgan o'rni, ularda kuzatilayotgan ilm-fanning ilg'or texnologiyalari eng Markaziy Osiyo davlatlarining diqqatini tortuvchi eng asosiy omillardan hisoblanadi. Jumladan, Prezident I.A.Karimov O'zbekiston tashqi siyosatining Yevropa yo'nalishi muhim o'rin tutishini va uning mamlakatimizda transformatsion jarayonlarining sur'ati va samaradorligini oshirishning eng muhim omillaridan biri ekanligini alohida ta'kidlagan edi¹.

Bu masalaga to'liqroq to'xtalib o'tishdan oldin 2016-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston va Yel orasidagi o'zaro aloqalar va diplomatik munosabatlarda qabul qilingan kelishuvlar, ularning mazmun-mohiyati va ijrosi bo'yicha qisqacha tahlil berib o'tsak. Avvalo shuni aytib o'tish kerak, bundan qariyb 31 yil avval – 1994-yil 16-noyabrda O'zbekiston va Yel o'rtasida diplomatik aloqa o'rnatilgan bo'lib, o'tgan chorak asrdan ziyod davr mobaynida Toshkent va Bryussel aloqalarida tarixiy ahamiyatga molik ko'plab hodisalar ro'y berdi.

1996-yil iyunda Italiyaning Florensiya shahrida Yel va O'zbekiston o'zaro aloqalari tarixida muhim voqealardan biri – tomonlar o'rtasida sheriklik va hamkorlik kelishuvi (ilk hamkorlik bitimi) imzolanishi bo'ldi. 1999-yil 1-iyuldan kuchga kirgan ushbu kelishuv siyosiy muloqot, savdo-iqtisodiy aloqalar, sarmoya, intellektual mulkni himoya qilish, qonunchilik hamda inson huquqlari bo'yicha hamkorlik, madaniy-gumanitar aloqalar kabi sohalarni o'z ichiga oldi. Bu kelishuv tomonlar o'rtasidagi hamkorlikni yo'nalishlarini belgilashga yaqin yillargacha xizmat qilib kelmoqda. Ayrim subyektiv sabablarga qaramasdan O'zbekiston TIVga ko'ra, mamlakat mustaqillikning ilk yillaridan boshlab Yevropa bilan hamkorlikni o'z tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilagan. Shu o'rinda aytib o'tish kerak, faqatgina 2018-yilga kelib, O'zbekiston tomoni o'zaro aloqalarni yangi bosqichga ko'tarish uchun Yelga taklif bilan murojaat qilgan.

O'zbekistonning **Yel bilan ikki va ko'p tomonlama hamkorligida ta'lim, inson huquqlari va madaniyat sohalari** ham muhim rol o'ynaydi. Jumladan, tomonlararo munosabatlarda ta'lim sohasidagi maxsus dasturlardan biri –

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари, тараққиёт кафолатлари. – Т.: “Ўзбекистон, 1997. 303-б.

“Yerasmus+” YeIning ta’lim bo’yicha 2014-2020 yillarga mo’ljallangan yirik dasturi qabul qilindi. Ushbu dastur 1994-yil hamda 2007-yildan amalga tatbiq etilgan “Tempus” va “Yerasmus Mundus” loyihalarining mantiqiy davomi sanaladi. “Yerasmus+” dasturining 2014-2020 yillardagi umumjahon budjeti 14,7 milliard yevroni tashkil etdi. Bugungi kunda Toshkentda ham “Erasmus+” milliy idorasi faoliyat yuritmoqda². Ushbu dastur doirasida o’lkamizdagi talaba, doktorant, oliy o’quv yurtlari o’qituvchi-xodimlariga Yevropa universitetlarida qisqa malaka oshirish yoki to’liq ta’lim imkoni taqdim etiladi.

2007-yildan buyon **huquq sohasidagi muloqot** yo’lga qo’yilgan: Toshkent hamda Bryusselda inson huquqlari bo’yicha, shuningdek, adliya va ichki ishlar bo’yicha yillik muloqotlar o’tkazilib keladi. O’zbekiston bilan YEI o’rtasidagi sheriklik va hamkorlik kelishuvi doirasida O’zbekiston Respublikasi parlament hamkorligi qo’mitasi hamda kichik qo’mitalarni o’z ichiga olgan 6 ta hamkorlik tashkiloti faoliyat yuritmoqda.

O’zbekistonning xalqaro munosabatlar tizimida dunyoning qudratli davlatlari, shuningdek global miqyosda ta’sirga ega xalqaro tuzilmalar bilan faol diplomatiya va uning muhim mexanizmlaridan biri – **oliy darajadagi rasmiy uchrashuvlar** bo’lib, misol uchun 2011-yil 24-yanvarda O’zbekiston prezidenti I.Karimov Belgiya Qirolligining Bryussel shahriga safar qilgan. Tashrif doirasida Yevropa komissiyasi raisi Joze Manuyel Barrozu va boshqa rasmiylar bilan uchrashuvlar o’tkazgan. Qayd etilishicha, mazkur tashrif YeIning O’zbekiston bilan turli sohalardagi o’zaro manfaatli hamkorlikni teng huquqlilik va sheriklik asosida kengaytirishga bo’lgan qiziqishini namoyon etgan edi.

Shuningdek, 2017-yil 9-10 noyabr kunlari YeIning tashqi ishlar va xavfsizlik siyosati bo’yicha oliy vakili Federika Mogerini “YeI – Markaziy Osiyo” vazirlar uchrashuvida ishtirok etish uchun O’zbekistonga tashrif buyurdi. Ushbu tashrif doirasida u Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan rasmiy qabul qilindi. 2019-yil 31-mayda Toshkentda O’zbekiston rahbari Sh.Mirziyoyev hamda Yevropa Kengashi Prezidenti D.Tusk uchrashuvi tashkil etildi. Muzokaralarda O’zbekiston va YeI o’rtasida konstruktiv siyosiy muloqot, savdo-iqtisodiy, innovatsion, ilmiy-texnik va madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlik rivojlanib borayotgani qayd etilgan³. O’zbekiston Respublikasi sobiq tashqi ishlar vaziri A.Komilov 2022 yil 12 noyabr kuni Bryusselda o’tgan matbuot anjumanida O’zbekiston va YeI o’rtasida hal etib bo’lmaz masala qolmaganini ma’lum qilgan edi.

O’zbekiston-YeI ikki va ko’p tomonlama munosabatlaridagi muhim yo’nalish – **bozor munosabatlarini rivojlantirish** va **biznes sohasidagi kelishuvlar** bo’lib, bugun Yevropa komissiyasining texnikaviy ko’magida biznes va turizmni rivojlantirish,

² <http://www.erasmusplus.uz/>

³ A.Саидов. O’zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o’rtasidagi parlamentlararo hamkorlik: holat va istiqbollari. // <http://pravacheloveka.uz/oz/articles/a8104>

transport logistikasi, chegaralarni boshqarish, narkotik vositalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish, xavfsizlik va boshqa sohalarda ko‘plab loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2018 yilda O‘zbekistonning YeI mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 3,73 milliard AQSh dollariga yetgan edi. Har yili 9 may – “Yevropa kuni” doirasida Toshkent va Samarqand shaharlarida O‘zbekiston faoliyat olib borayotgan YeI va BMT loyihalari taqdimoti o‘tkaziladi.

2019-yil 11-noyabrda YeI O‘zbekistonning JSTga qo‘shilishi uchun 5 million yevro grant ajratdi. Ushbu mablag‘ tashkilotga a‘zo bo‘lish jarayonida zarur hujjatlarni tayyorlash, o‘zbekistonlik mutaxassislarining JST kelishuvlari va xalqaro savdo tizimiga oid bilimlarini oshirishda ishlatiladi. Bugungi kunda global savdoning 96 foizi JSTga a‘zo 164 davlat hissasiga to‘g‘ri keladi. Shunisi qiziqki, Sobiq Ittifoq davlatlaridan ayrimlari (Armaniston, Estoniya, Latviya, Litva, Ukraina, Moldova, Rossiya, Gruziya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikistan) xalqaro tashkilotga kirgan, O‘zbekiston, Turkmaniston va Ozarboyjon hali a‘zo bo‘lganicha yo‘q.

Bryussel **qishloq xo‘jaligi va sanoatni rivojlantirish sohasida** O‘zbekistondagi qishloq xo‘jaligi sohasiga yirik grant mablag‘lari taqdim etib keladi. Xususan, 2014-2020 yillarda ikki tomonlama hamkorlik doirasida qishloqlarni rivojlantirish, fermerlar va qishloq aholisi daromadni ko‘paytirish, sektorning raqobatbardoshligi va mahsuldorligini oshirish maqsadida 168 million yevro ajratilgan. Shuningdek, 2019-yil 12-noyabrda YeI rasmiy vakillari tomonidan O‘zbekistonga GSP+ tizimi doirasida 6 mingdan ortiq tovarlarni boj to‘loviziz olib kirishda yordam berishga tayyorligi bildirilgan edi. 2021-yil aprel oyidan boshlab ushbu tizim O‘zbekiston uchun amal qila boshladi. O‘zbekiston sobiq tashqi ishlar vaziri A.Komilov hamda YeIning qishloq xo‘jaligi bo‘yicha komissari Fil Hoganning Bryusselda o‘tgan uchrashuvida tarif va tarifsiz to‘siqlarni bartaraf etish, standartlashtirishning Yevropa tizimlarini kiritish, sertifikatlash va sifatni boshqarish istiqbollari alohida e‘tibor qaratildi. Oxirgi yillarda O‘zbekistonning Yelga a‘zo mamlakatlar bilan o‘zaro savdo, iqtisodiy aloqalarida borgan sari o‘sish kuzatildi. Masalan, so‘nggi yillarda O‘zbekistondan YeI mamlakatlariga asosan kimyoviy moddalar, sanoat mollari, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa tovarlar eksport qilingan. YeI davlatlaridan – Germaniya, Litva, Latviya, Italiya hamda Fransiya O‘zbekistonning Yeldagi asosiy savdo hamkorlari sanaladi.

2019-yil iyulda YeI barqaror iste‘mol hamda ishlab chiqarish va mintaqada yashil iqtisodiyotga o‘tishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida Markaziy Osiyo uchun “Osiyo o‘zgarishlarini qo‘llab-quvvatlash” (SWITCH-Asia) dasturini amalga oshira boshladi. Ushbu dastur 2007 yilda YEI tomonidan joriy etilgan bo‘lib, uning doirasida o‘tgan yillar davomida Osiyodagi o‘nlab mamlakatlardagi barqaror iste‘mol va ishlab chiqarish jarayonlari rag‘batlantirildi. Endilikda dastur Markaziy Osiyo mamlakatlari, jumladan, O‘zbekistonni ham o‘z ichiga oladi. Bizningcha, ushbu dasturning amaliy ahamiyati mintaqada Xitoy omilining ortishi va Markaziy Osiyo davlatlarining

dunyoga ochilishi bilan ham bog‘liq (ushbu omil alohida tadqiqot mavzusi sifatida kengroq yoritilish mumkin – dissertant).

2011-yilda **YeI ilk rasmiy diplomatik vakolatxonasining ochilishi va o‘zaro aloqalarning institutsionallashuvi** yo‘lidagi muhim voqea sodir bo‘ldi: 2011-yil 31-mayda O‘zbekistonda YeIning vakolatxonasi rasman akkreditatsiyadan o‘tdi. Vakolatxona “YeIning O‘zbekistondagi delegatsiyasi” deb ataldi va uning Toshkentda doimiy faoliyat yuritayotgan rasmiy idorasi joylashgan. Delegatsiya tomonidan madaniy, gumanitar, ta’lim, turizm sohalariga doir tadbirlar, ommaviy uchrashuvlar uyushtirib kelinadi⁴. Bu kabi tadbirlardan ko‘zlangan maqsad Markaziy Osiyo va Yevropa xalqlari orasida o‘zaro muloqotni mustahkamlash, stereotip qarashlarni yo‘qotish, biznes madaniyatini targ‘ib qilish kabilardir. 2016-yil 19-sentyabrda latviyalik diplomat Eduards Stiprays YeIning O‘zbekistondagi vakolatxonasi rahbari sifatida lavozimga kirishgan edi. Undan keyin ushbu lavozimga Terxi Xakalan xonim ishladi. E.Stiprays YeIning yaqinda Markaziy Osiyo bo‘yicha maxsus vakil etib tayinlandi.

O‘zbekiston-YeI ko‘p tomonlama siyosiy hamkorligining yana bir ustuvor yo‘nalishi – **xalqaro sarmoyaviy hamkorlik** bo‘lib, 2017-yildan Yevropa investitsiya banki (YeIB) hamda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YeTTB) O‘zbekiston bilan hamkorlikni yangidan yo‘lga qo‘ydi. 2017-yil oktyabrda O‘zbekiston YeIB bilan hamkorlik bo‘yicha bitim imzolandi, 2017-yil noyabrda YeTTB Toshkentda o‘z vakolatxonasini ochdi. Ma’lumot uchun, mamlakatimizda bugungi kunda YeIga a’zo davlatlardan jalb qilingan investitsiyalar ishtirokida 1000 dan ortiq korxona faoliyat yuritib kelmoqda.

Shuningdek, YeI 2003-2019 yillarda BOMCA (Markaziy Osiyoda chegarani boshqarish) dasturi doirasida Markaziy Osiyo mamlakatlariga 40,1 million yevro ajratdi. BOMCA dasturi 2003 yilda amaliyotga joriy etilgan bo‘lib, u Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida chegaralar boshqaruvi bo‘yicha hamkorlikni rivojlantirishni ko‘zda tutadi. O‘zbekistonning YeI bilan hamkorligida mintaqaviy xavfsizlik sohasi o‘ziga xos xarakterga ega bo‘lib, bu masalada YeIning hatto AQSHdan farqli pozitsiyalar shakllanmoqda.

2018-yil 27-mart Toshkentda “Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik” mavzusida Afg‘oniston bo‘yicha yuqori darajadagi maslahatlashuv o‘tkazilib, unda YeIning tashqi ishlar va xavfsizlik siyosati bo‘yicha oliy vakili Federika Mogerini xonim ham qatnashib, u o‘z nutqida Afg‘onistondagi vaziyatni barqarorlashtirishga oid rasmiy Toshkent tashabbusini qo‘llab-quvvatlashi, bu masala Bryusselning ham doimiy e’tiborida ekaniga urg‘u qaratadi.

Yangi O‘zbekistonning xalqaro aloqalarining jadallashuvida YeI bilan siyosiy muloqotni kengaytirish turli darajadagi rasmiylar o‘zaro uchrashuv va muzokaralarida

⁴https://www.eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan/european-union-commences-30-years-partnership-celebration-uzbekistan-flagship-public-event-year_en?s=233

o'z ifodasini topayotganini ta'kidlashimiz mumkin. Misol uchun, global pandemiyadan keyin O'zbekiston hukumatining sa'iy harakatlari bilan pandemiyadan o'ziga xos tajribani ishga solishi, BMT, YeI kabi xalqaro tuzilmalarning diqqat e'tiborini tortdi. Xususan, 2020-yil 12-may kuni O'zbekiston Respublikasi Senati raisining birinchi o'rinbosari S.Safoyev va YeI parlamentining Markaziy Osiyo mamlakatlari va Mo'g'uliston bilan aloqalar bo'yicha delegatsiyasi raisi F.Martushello bilan videokonferensiya shaklida muzokaralar bo'lib o'tgan. O'zbekiston tomoni pandemiyaning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga ta'sirini kamaytirish uchun 36 mln. yevro miqdorida moliyaviy yordam taqdim etishga tayyorligi uchun YeIga minnatdorlik bildirdi. F.Martushello esa koronavirusning tarqalishiga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekistonda ko'rilayotgan chora-tadbirlardan xabardor etildi. F.Martushello O'zbekistonning GSP+ preferensial savdo maqomiga ega bo'lishi mamlakatimizdagi islohotlar siyosati qo'llab-quvvatlanishini ko'rsatuvchi muhim qadam bo'lishiga qo'shildi. Ma'lumki, 2021-yil aprel oyidan O'zbekistonning GSP+ tizimiga kiritilishi natijasida 6 mingdan ziyod nomdagi tovarlarni YeIga bojsiz eksport qilish imkoni berilmoqda⁵.

2019-yilda AQSh, Rossiya va Xitoy singari eng muhim geosiyosiy o'yinchilar o'rtasidagi ziddiyatli munosabatlarining tobora kuchayib borishi Markaziy Osiyodagi jarayonlarga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Markaziy Osiyo davlatlari ayrimlarining, xususan, O'zbekiston, Qirg'iziston va Qozog'iston boshqaruvidagi o'zgarishlar YeI–Markaziy Osiyo siyosiy aloqalarida tub burilish yasadi. Ayniqsa, 2017-yilning boshida O'zbekiston mintaqaviy siyosatining yangilanishi bu jaryonda hal qiluvchi rol o'ynadi. Jumladan, Sh.Mirziyoyev yetakchiligidagi mintaqa mamlakatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlarining yo'lga qo'yilishi, ushbu mamlakatda xalqaro tashkilotlar bilan faol diplomatik muloqotning ishga tushishi, qo'shni va jahonning yetakchi davlatlari bilan faol iqtisodiy aloqalarni jonlantirishga urg'u berila boshlashi YeIning O'zbekistonga qiziqishini ortirib, bu esa o'z navbatida mintaqaning strategik mavqening tiklanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, Qozog'istondagi hukumat almashinuvi, Qirg'izistondagi demokratik saylovlar ham YeIning mintaqa strategiyasini yangilashga undadi. Tomonlar o'rtasidagi siyosiy muloqot amaliy harakatlarga ulanib ketdi. Garchi keyingi yillarda Tojikiston va Turkmaniston hukumati tarkibida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmasa-da, YeI yuqorida aytib o'tilgan uchta davlatdagi barqarorlashayotgan holatdan kelib chiqib, mintaqaga bo'lgan munosabatini yana-da faollashtirishga qarata boshladi. Keyingi yillarda Markaziy Osiyo davlatlarining har biriga alohida imtiyozlarning berilishi va yangi loyihalarning joriy etilishida o'z ifodasini topadi.

G'arb davlatlari, shu jumladan, YeI yetakchi davlatlari bugungi kun geosiyosiy vaziyatini inobatga olgan holda mintaqaga nisbatan strategik muvozanatni saqlash,

⁵ <https://kun.uz/news/2020/05/13/sodiq-safoyev-fulvio-martushello-bilan-muzokaralar-otkazdi>

istiqbolni belgilash maqsadida aynan XXR, Rossiya Federatsiyasi, hatto AQSh kabi “o’yinchi”larga muqobil sifatida o’zini namoyon qilayotganligi ko’zga tashlanadi. Bizningcha, YeIning yaqin kelajakdagi mintaqadagi manfaatlari BMT kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan ilgari surilayotgan barqaror rivojlanish (BRM) kabi taraqqiyot yo’lida hamkorlik missiyalariga hamohang ekanligi xarakterlidir.

Markaziy Osiyo davlatlari ayrimlarining, xususan, O’zbekiston, Qirg’iziston va Qozog’iston boshqaruvidagi o’zgarishlar Markaziy Osiyo-YeI siyosiy aloqalarida tub burilish yasalishiga olib keldi. Ayniqsa, 2017-yilning boshida O’zbekiston mintaqaviy siyosatining yangilanishi bu jaryonda hal qiluvchi rol o’ynab, Sh.Mirziyoyev yetakchiligidagi mintaqa mamlakatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlarining yo’lga qo’yilishi xalqaro aloqalarda ham o’z aksini topa boshladi. O’zbekistonda xalqaro tashkilotlar bilan faol diplomatik muloqotning ishga tushishi, qo’shni va jahonning yetakchi davlatlari bilan faol iqtisodiy aloqalarni jonlantirishga urg’u berila boshlashi YeIning bu mamlakatga qiziqishi yana-da ortirishiga turtki bo’ldi. Shuningdek, Qozog’istondagi hukumat almashinuvi, Qirg’izistondagi demokratik saylovlar ham YeIning mintaqa strategiyasini yangilashni taqozo qildi. Shu tariqa tomonlar o’rtasidagi siyosiy muloqot amaliy harakatlarda yana-da ko’proq o’z aksini topa boshladi. To’g’ri, keyingi yillarda Tojikiston va Turkmaniston hukumati tarkibida sezilarli o’zgarishlar kuzatilmasa-da, YeI mintaqadagi O’zbekiston, Qozog’iston va Qirg’izistondagi barqarorlashayotgan holatga e’tibora qaratdi. YeIning mintaqaga bo’lgan munosabatini yana-da faollashtirishiga ushbu omillar o’z ta’sirini ko’rsatdi. Bu esa keyingi yillarda Markaziy Osiyo davlatlarining har biriga alohida imtiyozlarning berilishi va yangi loyihalarning joriy etilishida o’z tasdig’ini topmoqda.

YeI yetakchi davlatlari bugungi kun geosiyosiy vaziyatini inobatga olgan holda Markaziy Osiyoga nisbatan strategik muvozanatni saqlash va istiqbolni belgilash maqsadida XXR, Rossiya Federatsiyasi va AQSh kabi yetakchi “o’yinchi”larga muqobil sifatida o’z strtayegiyasini belgilayotganligi bilan ajralib turadi. YeIning yaqin kelajakda bu mintaqadagi manfaatlari BMT kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan olg’a surilayotgan barqaror rivojlanish (BRM) kabi taraqqiyot yo’lida hamkorlik missiyalariga uyg’unlikka ega. Mintaqani transport-logistika, iqtisodiy-energetik habga aylantirishda avvalo, bu yerda yaxshi qo’shnihilik va barqaror taraqqiyot uchun umumiy sa’iy-harakatlarni birlashtirishning ustuvorligi ayon bo’lmoqda. Obyektiv voqelikka aylangan – ko’p qutbli dunyo tartiboti sharoitida jahon taraqqiyot markazlaridan va eng namunali integratsion tuzilmalardan biri bo’lgan YeI bilan ko’p tomonlama diplomatiya Markaziy Osiyo uchun global tizimlarga bog’lanishda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 16-yanvar kuni Yeling Yevropa komissiyasi vitse-prezidenti Margaritis Sxinas boshchiligidagi delegatsiyasini qabul qildi⁶. Keyingi yillarda hamkorlik sezilarli darajada faollashdi.

⁶ <https://president.uz/uz/lists/view/6972>

Yevropa kengashi Prezidenti Sharl Mishelning O‘zbekistonga tashrifi, Markaziy Osiyo davlatlari va Yevroittifoq rahbarlarining ikkita uchrashuvi, o‘zaro bog‘liqlik bo‘yicha Samarqand konferensiyasi muvaffaqiyatli o‘tkazildi. Bugun kunda YeI va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi aloqalarni kengaytirish bo‘yicha qo‘shma “yo‘l xaritasi” amalga oshirilmoqda. “Markaziy Osiyo-YeI” birinchi sammiti 2025-yil 3-4-aprel kunlari Samarqand shahrida ko‘tarinki ro‘had tashkil etildi. O‘zbekiston va YeI mamlakatlari o‘rtasidagi savdo jadal o‘sib bormoqda, o‘tgan yili uning hajmi 30 foizga oshdi.

Yevropaning yetakchi kompaniyalari ishtirokida yuqori texnologik tarmoqlarda yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. YeIning O‘zbekiston uchun savdo preferensiyalari amal qilish muddati uzaytirildi. YeI-O‘zbekiston hamkorligi istiqbollariga doir Sharl Mishelning quyidagi fikrlari yuqoridagilarni tasdiqlaydi: “Biz O‘zbekiston, uning prezidenti va hukumatining mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashdagi muhim rolini yuqori baholaymiz. Yevropa Ittifoqi barqarorlik va farovonlik yo‘lida hamkor bo‘lishga va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashga doimo tayyor”⁷.

Xulosa va takliflar

Markaziy Osiyo-YeI o‘zaro ko‘p tomonlama aloqalarining hozirgi bosqichi mazmunan bugun ham davom etmoqda. Biroq, tarixiy nuqtai nazardan kechagi kunimiz ham bir tarixligini inobatga olsak, ushbu engi davrning muhim xususiyatlari, unda Markaziy Osiyo hamkorligining o‘rni haqida quyidagi xulosa va fikrlarni umumlashtirgan holda ilgari suramiz:

1) Avvalo, mazkur davr mintaqaning ichki muammolari tufayli o‘zgarishni taqoza etgan obyektiv hodisalar bilan to‘la edi. Bunda, mintaqaviy liderlar – Prezidentlar (Sh.Mirziyoyev, Q.-J.Tokayev kabilar)ning alohida o‘rnini ta’kidlash zarur;

2) Mintaqa davlatlarining YeI bilan ko‘p tomonlama siyosiy aloqalari global tartibotlagi geosiyosiy o‘zgarishlar, xususan katta Yevrosiyoda Xitoy, Rossiya omilining kuchayishi kabi jarayonlar YeIning Markaziy Osiyo siyosatida avvalgi kabi siyosiy richaglardan ko‘ra aniq iqtisodiy manfaatdorlikni inobatga olgan holda ish tutishga majbur qilmoqda;

3) O‘zbekistonning xalqaro munosabatlar tizimida YeI bilan ko‘p tomonlama hamkorlik turli sohalarida mintaqaviy va global imperativlar (kollektiv xavfsizlik, barqaror rivojlanish, yashil texnologiyalarni joriy qilinishi va tranzit yo‘laklarni rivojlantirish, qolaversa yangi Ipak yo‘li loyihalarining hatyotga tatbiq etilishi) bilan bog‘liq ekanligi yildan yilda kundalik haqiqatga aylanmoqda);

4) Butun dunyoda tinchlik va barqarorlikka erishishda ko‘p tomonlama diplomatiya albatta O‘zbekiston kabi kichik va o‘rta hajmdagi davlatlarning xalqaro

⁷ <https://www.gazeta.uz/uz/2022/10/28/charles-michel/>

maydonda o'z o'rnini mustahkamlashida muhim vosita vazifasini bajaradi. Bugun inson huquqlari va demokratiya masalalarida yangi O'zbekistonda qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilganini, O'zbekistonning inson huquqlari bo'yicha xalqaro Kengashga a'zoligi YeI bilan bundan keyingi ochiq muloqotga yo'l ochib beradi;

5) O'zbekiston va mintaqaning ko'pchiligida kuzatilayotgan "Rossiya omili" va "Xitoy omili" mamlakatlarning muqobillik asosida iqtisodiyotlarini tarkibiy o'zgartirishlarini, shuningdek, davlat suverenitetini mustahkamlashda eng avvalo "Mirkaziy Osiyo birdamligi" g'oyasiga tayanilishi mumkin (bu YeI bilan umumiy tashqi siyosat masalasida ham qo'l keladi);

6) YeI tomonidan Markaziy Osiyo mamlakatlarini "qo'shnilarining qo'shnisi" deb qaralishi, shuningdek Sharqiy Yevropadagi Ukraina mojarosi ortidan Kaspiy, Yaqin Sharqdagi o'zgarishlar Markaziy Osiyo davlatlarini, shu jumladan O'zbekistonning tashqi iqtisodiy munosabatlarini o'zaro muvozanatlashgan holda siyosat olib borishiga undaydi;

7) Markaziy Osiyo-YeI ko'p tomonlama munosabatlaridagi muhim strategik yo'nalishlardan biri – mintaqa mamlakatlarining ekstra-regional jarayonlarga qo'shilishi (misol uchun, Markaziy Osiyoning Yaqin Sharq va Ko'rfaz mintaqasi, shuningdek Janubiy Osiyo mintaqasi bilan o'zaro bog'liqlikdagi savdo-tranzit multimodal yo'laklarini rivojlantirilishi) YeI va AQSh kabi global o'yinchilar strategiyalarini inobatga olish muhim. Bunda "Yangi katta o'yin"dan qochish maqsadga muvofiq;

8) Markaziy Osiyodagi zamonaviy ko'p tomonlama diplomatiyaning tashqi mexanizmlari – "Markaziy Osiyo+Yaponiya", "Markaziy Osiyo va YeI", "Markaziy Osiyo+Germaniya", "Markaziy Osiyo+AQSH", "Markaziy Osiyo+Xitoy" kabi formatlarni optimallashtirish va ularning faoliyatini muvoviqilashtirishda mahalliy formatlardan foydalanish mumkin (MODRMU misolida bu amalga oshirilishi mumkin).

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари, тараққиёт кафолатлари. – Т.: "Ўзбекистон, 1997. 303-б.
2. <http://www.erasmusplus.uz/>
3. А.Саидов. О'zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi parlametnlararo hamkorlik: holat va istiqbollari. // <http://pravacheloveka.uz/oz/articles/a8104>
4. https://www.eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan/european-union-commences-30-years-partnership-celebration-uzbekistan-flagship-public-event-year_en?s=233
5. <https://kun.uz/news/2020/05/13/sodiq-safoyev-fulvio-martushello-bilan-muzokaralar-otkazdi>
6. <https://president.uz/uz/lists/view/6972>
7. <https://www.gazeta.uz/uz/2022/10/28/charles-michel>